

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV SINFLARNI TASHKIL ETILISHIDA O'QITUVCHINING FAOLIYATI

Saparova Umida Baxromovna

Tashkent University of Applied Sciences, Gavhar Str. 1,

Tashkent 100149, Uzbekistan

umidasaparova7@gmail.com

Berdiqobilova Kamola O'ktamovna

Tashkent University of Applied Sciences, Gavhar Str. 1,

Tashkent 100149, Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limning inklyuziv sinflarida o'qituvchining faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv, individual xususiyat, ta'lim, konsepsiya, normativ baza

Kirish. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim – tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlarini yaxshilash asosiy maqsad sifatida qaratilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normative baza takomillashtiriladi. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 20-moddasida ham “Inklyuziv ta’lim tizimi”ga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlatimizda inklyuziv ta’lim tizimi siyosat darajasida ishlar olib borilmoqda.

Asosiy qism.

Inklyuziv ta’lim o‘zi nima?

“Inklyuziv ta’lim” bu ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion – uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi. Nogironligi bor bolalar va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko‘ra imkoniyati cheklangan) rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xavfsizligini ta’minlash, inklyuziv ta’limni modellashtirishning zamonaviy pedagogik klasterili yondashuvini taqozo yetadi.

V.P.Bespalkoni nuqtayi nazaricha bugungi kunda modellashtirish usuli, vizualizatsiyani yeng yuqori va maxsus shaklidir. U tadqiqotchiga obyektning o‘zini yemas, balki uning ba’zi bir analoglarini ko‘rsatishga imkon beradi. Shu bilan birga, vositalashtirilgan bilish “ma’lum jihatdan o‘rganilayotgan obyektни almashtirishga va

u haqida yangi ma'lumotlarni taqdim yetishga qodir bo'lgan tabiiy yoki sun'iy tizimlar yordamida” amalga oshiriladi.[1] V.A.Shtoff ilmiy mulohazasiga ko'ra model - bu o'rganish obyektni aks yettiruvchi yoki qayta ishlab chiqaruvchi hamda obyekt haqida yangi ma'lumot beradigan tarzda almashtirishga qodir bo'lgan aqliy ifodalangan va moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimdir.

A.M.Tomson va Dj.L.Perri tomonidan model tushunchasiga doir ilmiy mulohazalar o'rganilib, “konseptual model” tushunchasiga ye'tibor qaratishgan. Mazkur model, global obraz bo'lib, mavjud jarayonlarni turli qismlarini butun bilan bog'lash hamda shunga mos ravishda samarali harakat qilish funksiyalarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi degan gipotezani ilgari surgan .

Ushbu modellashtirish mohiyatining nazariy asoslaridan kelib chiqqan holda biz ilmiy tadqiqotimizda inklyuziv ta'lim klasteri muhiti, hayot xavfsizligi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish maqadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bunda yeng avvalo, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning hayot xavfsizligini ta'minlash jarayoni, uning tuzilishi, asosiy xususiyatlari, funksiyalari va aloqalarini aniqlash masalasiga ye'tibor qaratish, inklyuziv ta'lim tayyorgarligi, yaratilgan shartsharoitlar, hayot xavfsizligi mezonlarini muvofiqlashtirish hamda tizimni pedagogikpsixologik jihatdan tahlil yetish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalari va muvofiqlashtirish modelini ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganib chiqish natijasida, jahon amaliyotida uning ikkita, ya'ni tashkiliy (imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari, individual va umumiy pedagogik yondashuv, psixologik xavfsizlik, ruhiy toliqishni oldini olish, kognitiv faolligini rivojlantirish, bilim va tushunchalarini oshirishga qaratilgan innovatsion metodikalarni ta'lim jarayoniga olib kirish, reflektiv yondashuv, ijtimoiylashish va integratsiya modellari ishlab chiqish va amaliyotga realizatsiya yetish) va ma'muriy (imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishda davlat va jamiyat funksiyasini qonuniy asoslarini yaratish, huquqiyme'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, mas'ul tashkilot va organlarning vazifalari hamda inklyuziv ta'limning zarurati va mohiyatini belgilash, pedagogik, psixologik, texnik va huquqiy omillarini muvofiqlashtirish, o'quv makonini tashkil yetish, hududiy infratuzilma xususiyatlarini aniqlashtirish, kadrlar, moddiy-texnika baza va qabul qilingan ma'muriy qarorlarning inklyuziya tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash) model yondashuviga klassifikatsiyalanadi degan xulosaga keldik.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyasiga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.Imkoniyati cheklangan bolani umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida “inklyuziv” yoki “integratsion” ta'lim atamalari bilan ataladi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir – biriga o'xshamaydigan, intellectual, jismoniy va aqliy xususiyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar, maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan o'quvchilar, tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarini oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim –alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Faqat eshitish va ko'rishida yuqori darajada nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bundan mustasno.

Inklyuziv ta’limning maqsadi – irq, ijtimoiy holat, etnik, din, jins, qobiliyatining xilma – xilligiga munosabati va yondashuv natijasi bo’lgan ijtimoiy ajratishni yo’q qilishdir.

Boshlang’ich ta’limda inklyuziv sinfnin raxbari (o’qituvchi) pexta o’rgangan nazariy bilimlardan tashqari, psixologik va fundamental tibbiy bilimlarga ham ega bo’lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dars jarayonida o’quvchilarga ma’lumotlarni bilimlarni, tenglik tarzida o’zlashtirishlariga yordam berishi, sog’lom o’quvchilar rivojlanishida, aqliy nuqsoni yoki nogironligi bor o’quvchilarni mazax qilmasliklarini oldini olishi, shuningdek, o’quvchilar orasida inklyuziv ta’lim haqida tushuntirish ishlarini olib borishi, o’z faoliyatiga ijobiy yondashuv hosil qilgan bo’ladi.

Inklyuziv ta’limda bolalarni o’qitishning o’ziga xos xususiyati shundaki, intellectual qobiliyati cheklangan o’quvchi sog’lom rivojlanayotgan o’quvchilar muhitida bo’ladi. Bu o’z o’rnida rivojlanishdan ortda qolayotgan o’quvchiga, oldinga qarab shakllanib borishiga turtki bo’ladi. O’qituvchi mavzularni yoritishda ko’rgazmali qurollardan foydalanish, innovatsion metodlarni qo’llashi, o’quvchilarni diqqatini jalb qiladi.

O’quvchilarga bilimlar to’g’risida ma’lumot berishdan oldin ularda ushbu bilimlarni qabul qilish darajasini va qay darajada tushunayotganiga o’z munosabatini bildirib o’tishi kerak.

Yana shuni ta’kidlab o’tish kerakki, boshlang’ich sinf o’qituvchisi butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O’zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni berilishi va ularga amal qilishi zarur.

- Alohida ehtiyojlari bo’lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta’lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi;

- Inklyuziv ta’lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorligiga erishish va unda ota – onaning o’rnini ko’rsatib berishi;

- Inklyuziv ta’lim bo’yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o’rganib boorish va ularni ish faoliyatida qo’llash;

- Alohida ehtiyojlari bo’lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo’lgan chora – tadbirlarni amalga oshirib borishi;

- Sinf jamoasi orasida do’stona munosabat muhitini o’rnatish;

- Ota – onalarga milliy ta’lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o’rgatish (asosan yakka mashg’ulotlarda);

- Ota – onalarni qo’llab – quvvatlash maqsadida guruhlarga kirish huquqini berishi kerak.

Shuningdek, sinf va maktab yig’ilishida qatnashishini ta’minlash va ularni jalb qilishi lozim.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlab o’tishim lozimki, ushbu maqolamni yozishimga amaliyot davrimdagi inklyuziv ta’limga asoslanib, taxsil olayotgan o’quvchilar qiziqish uyg’otishdi. O’zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’iy nazar barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Davlatimizda siyosat darajasiga ko’tarilgan inklyuziv ta’lim tizimiga hamma (maktab direktori, sinf – rahbarlari, o’qituvchilar, maktab xodimlari) birdek ma’suliyatni o’z

zimmasiga olishgan. Imkoniyati cheklangan bolaning ota – onalari ham hech qanday psixologik jarohatlarsiz o‘z farzandini sog‘lom bolalar qatorida tahsil olayotganini ko‘rishayotganidan xursand. Bu o‘z navbatida inklyuziv ta‘limning ijobiy tomonlarini namoyon etmoqda. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, tengdoshlari bilan birgalikda mavjud qobiliyatlarini namoyon etish uchun zaruriy sharoitlarni ta‘minlaydi. O‘qish va o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, hayotning faol a‘zosiga aylantiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun muhim ijobiy yutuq bo‘lib, ijtimoiy psixologik muhitni yanada yaxshilashga, qolaversa barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta‘lim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv / “Pedagogik ta‘lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi 2023-yil, 15-iyun. - B.566-568
2. Kobilova Sh.X. Pedagogical approaches to formation of life safety competence of students with disabilities in practical activity // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* ISSN: 2249-7137 Vol. 13, Issue 1, January 2023.- S. 72-78 (Impact Factor 8.252)
3. Назарова Н.М. К проблеме разработки теоретических и методологических основ образовательной интеграции / Н.М. Назарова // *Психологическая наука и образование*. –2011. – № 3. – С. 5-11
4. Пенин Г. Н. Социально-правовые аспекты инклюзивного обучения лиц с овз в России // *Universum: Вестник Герценовского университета*. 2/2012.-С.53-54.
5. Штофф В.А. Роль модели в познании / В.А. Штофф. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1963. – 127 с